V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

XATAMOV NOSIRJON MUYDINOVICH

SANOQLI GRAFLARDA BIOLOGIK VA FIZIK SISTEMALAR UCHUN GIBBS O‘LCHOVLARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2023

UDK: 517.98+519.21

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

XATAMOV NOSIRJON MUYDINOVICH

SANOQLI GRAFLARDA BIOLOGIK VA FIZIK SISTEMALAR UCHUN GIBBS O‘LCHOVLARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2023

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.DSc/FM225 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**G‘anixo‘jayev Nosir Nabiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, laboratoriya mudiri
Rasmiy opponentlar:	**Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Temir Seyit Matematika fanlari doktori, professor
	Botirov G‘olibjon Isroilovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 16-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (173-raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 22 - dekabr kuni tarqatildi.
(2023-yil 22 - dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (doktorlik dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Ma'lumki, Gibbs o'lchovlari nazariyasi statistik mexanika modellari va biologik sistemalarning termodinamik holatlarini tavsiflashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning asosi hisoblanadi. Ayniqsa, o'zaro ta'sir qiluvchi zarrachalardan tashkil topgan sistemalar uchun fazaviy o'tishlar nazariyasini tushuntirishda Gibbs o'lchovlari muhim ahamiyat kasb etadi. Gibbs o'lchovlari nazariyasi statistik fizika va o'lchovlar nazariyasining kesishmasidagi shunday yo'nalishki, uni nazariy va amaliy matematikani bog'lovchi ko'prik sifatida qarash mumkin. Gibbs o'lchovi tushunchasining qo'llanilishi amerikalik olim J.Gibbs bilan bog'lansa-da, bu nazariyaning rivojlanishi va ommalshishida R.L. Dobrushin, O.Ye. Lanford va D. Ryuellarning xizmatlari beqiyosligini ta'kidlash joiz. Dastlab o'zgarmas harorat ostidagi atrof-muhit bilan issiqlik muvozanatida bo'lgan sistemalar uchun taqsimot qonuni sifatida kiritilgan bu tushuncha bugungi kunda biologiya, genetika, iqtisodiyot va fanning boshqa ko'plab tarmoqlarida o'z tatbiqini topib kelmoqda.

Hozirgi kunda jahonda panjarali sistemalardagi statistik mexanikaning chekli va sanoqli spin qiymatlarga ega modellari uchun davriy va translyatsion-invariant Gibbs o'lchovlarini to'plamini tavsiflash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, statistik mexanikaning Izing va Potts modellari kabi ba'zi klassik modellarining samaradorligini oshirish maqsadida aralash tipdagi va spin qiymatlar to'plami sanoqli bo'lgan modellarni tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday modellar uchun translaytsion-invariant va davriy Gibbs o'lchovlarini qurish, qurilgan o'lchovlar to'plamining strukturasini tahlil qilish, mavjud Gibbs o'lchovlarining chekka o'lchov bo'lish shartlarini topish, temperaturaning faza almashishini ta'minlovchi kritik qiymatlarini aniqlash hamda Gibbs o'lchovlarining biologik talqinlarini o'rganish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo'lgan dolzarb yo'nalishlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, statistik mexanikaning klassik (Izing, Potts, HC, Blyum-Kapel) modellari uchun limit Gibbs o'lchovlarini tadqiq qilish, translyatsion-invariant, davriy, gradiyent Gibbs o'lchovlarini mavjudligini va ularning biologik talqinini aniqlash usullarini topish borasida salmoqli natijalarga erishildi. "Funksional analiz, matematik fizika, ehtimollik nazariyasi va dinamik tizimlar nazariyasi" fanlarining ustivor yo'nalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi[1]. Qarorning ijrosini ta'minlashda ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida aralash tipdagi va spin qiymatlari to'plami ko'pi bilan sanoqli bo'lgan modellar uchun Gibbs o'lchovlari to'plamining xossalari tadqiq qilish va ularning biologiyaga tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega.

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 292-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son ‘Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2].

Gibbs o‘lchovlari nazariyasi va ularning tatbiqlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Bari va Roma universiteti (Italiya), Bonn universiteti, Charls univeristeti (Praga), Vena universiteti (Avstriya), amaliy matematika instituti, Boxumning Rur universiteti (Germaniya), INFN ilmiy instituti, Abdus Salam nomidagi xalqaro nazariy fizika markazi, Istiqbolli tadqiqotlar markazi, Akvila universiteti (Italiya), Marsel universiteti, Provans universiteti, CNRS va Parij universiteti (Fransiya), Moskva davlat universiteti, axborotlar uzatish muammolari instituti, Rossiya fanlar akademiyasi Matematika instituti (Rossiya), Aveyru universiteti (Portugaliya), Kyusyu universiteti (Yaponiya), Kembrij universiteti, Matematika maktabi, Lids universiteti, Lafboro universiteti (Buyuk Britaniya), Zirve universiteti, Xarran universiteti (Turkiya), Jeneva universiteti (Shveysariya) va boshqa xorijiy ilmiy muassasalarda keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Statistik fizikaning turli modellari uchun Gibbs o‘lchovlarini qurish va ularning tadbiqlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator dolzarb masalalar yechilgan, xususan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Keli daraxtida ikki holatli Hard Core (HC) modeli uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovining yagonaligi ko‘rsatilgan va shu model parametrlariga ba’zi shartlar qo‘yilganda davri ikkiga teng bo‘lgan Gibbs o‘lchovlarining yagonamasligi isbotlangan (Statistical Laboratory, DPMMS, University of Cambridge, Angliya); uch va to‘rt holatli qattiq disklar modellari uchun unumdor HC modeli tushunchasi kiritilgan va bunday modellar uchun Gibbs o‘lchovi yagona va yagona bo‘lmaydigan shartlar topilgan (Department of Mathematics, London School of Economics (Angliya),

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: Teoreticheskaya i matematicheskaya fizika, Matematicheskiye zametki, Ukrainskiy matematicheskiy jurnal, Journal of Mathematical Physics, Analysis, Geometry http://www.springer.com/mathematics; Nanosystems: physics, chemistry, mathematics, Lobachevskii journal of Mathematics, Vestnik Udmurtskogo universiteta. Matematika. Mexanika. Kompyuterniye nauki: Conference Series https://www.researchgate.net va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Bell Laboratories, Lucent Technologies, Mountain Avenue Murray Hill, New Jersey (AQSH)); $k \geq 2$ tartibli Keli daraxtida ferromagnit Potts modeli uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari to‘liq tasniflangan, ikkinchi tartibli Keli daraxtida esa bu o‘lchovlarning chekka o‘lchov bo‘lish shartlari topilgan (Fakultät für Mathematik-Ruhr-Universität Bochum (Germaniya)); Keli daraxtida to‘rt holatli qattiq disklar modellari hamda SOS modeli uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi va yagonamasligi ko‘rsatilgan (Centre de Physique Théorique, Universités Aix-Marseille et Sud Toulon-Var (Fransiya)). Keli daraxtida Izing modeli uchun translyasion-invariant Gibbs o‘lchovlarining biologiyaga tatbiqi o‘rganilgan (University of Santiago de Compostela (Spain)).

Dunyoda bugungi kunda, turli modellar uchun Gibbs o‘lchovlarini aniqlash va ularni biologiyaga tatbiq etish bo‘yicha bir qator izlanishlar, jumladan: umumlashgan Izing, Potts, HC, Blyum-Kapel, SOS modellari uchun translyatsion-invariant, davriy va boshqa Gibbs o‘lchovlarining mavjudligini ko‘rsatish va gradiyent Gibbs o‘lchovlarini tasniflash; HC-Blyum-Kapel modellari uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarining chekka o‘lchov bo‘lish shartlarini topish; HC-Blyum-Kapel modellari va SOS modellari uchun parametrlarning translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari yagona bo‘lmaydigan aniq qiymatlarini topish hamda chekka o‘lchov bo‘lish shartlarini aniqlash; spin qiymatlari soni chekli yoki sanoqli bo‘lgan modellar uchun translyatsion-invariant, davriy va gradiyent Gibbs o‘lchov-larining mavjudlik shartlarini topish; Izing va Blyum-Kapel modellari uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarini biologik talqinini tahlil qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘p sondagi o‘zaro ta’sir qiluvchi komponentlardan tashkil topgan sistemalar modellarning asosiy sinfi hisoblanib, ular yordamida yetarlicha katta (cheksiz) fizik yoki axborot sistemalarining holatlarini o'rganish mumkin. Bunday ko'p komponentli modellarni fizik tilda tavsiflashning umumiy strukturasi XIX-XX asrlarda Boltsmann va Gibbs tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning ishlari yangi fan – statistik mexanikaga asos solinishiga sabab bo‘ldi. Dastlab, statistik mexanika sof fizik muammolarni hal qilishga mo‘ljallangan edi, ammo ishlab chiqilgan yangi metodlar va yondashuvlar shunchalik universal bo‘lib chiqdiki, ular fizik masalalar doirasidan tashqariga chiqadigan turli muammolarda qo‘llanila boshladi. Matematik statistik mexanikaning asoslari XX asrning 40-50-yillarida L. Van Xov, J.I. Onsager, N.N. Bogolyubov va B.I. Xatset, M. Kats, T. Li va K. Yang, keyinchalik, 60-70-yillarda R.L. Dobrushin, R.A. Minlos, Ya.G. Sinay, F.A. Berezin, O. Lanford, D. Ruelle, J. Gallavotti, R. Griffits, J. Ginibra, D. Robinson, F. Spitzer, J. Lebowitz, S. Miracle-Sol ishlarida rivojlantirilgan, bunda, xususan, qat’iy matematik talqinda termodinamik limitga o‘tish, Gibbs tasodifiy maydoni tushunchalari kiritildi, limit Gibbs o‘lchovlari qurildi, uzluksiz va panjarali sistemalarning korrelyatsiya funksiyalari o‘rganildi, fazaviy o‘tishlar nazariyasi asoslari qurildi, nomutanosiblik (muvozanatsizlik) modellari kiritildi va ularning Gibbs holatlari bilan bog‘liqligi o‘rganildi. R.L.Dobrushin tomonidan limit Gibbs o‘lchovining mavjudligi haqidagi teorema isbotlangan. K.X.Xinin bu teoremani kvant maydonlar nazariyasining panjarali modellari uchun qo‘llagan. Faza almashishlarning asosiy nazariyasi S.A.Pirogov, Ya.G.Sinay, R.A.Minlos, N.Datta, R.Fernandez, J.Fröhlich, A.C.D.Enter va M.Zahradnik ishlarida o‘z aksini topgan. Konfiguratsiyasida spin cheklanmagan sondagi qiymatlar qabul qiladigan modellar uchun Gibbs o‘lchovi-ning mavjudligi haqida teorema J.Lebowith va E.Presutti tomonidan isbotlangan. Panjarali modellarning turli sinflari uchun Payerlsning kontur usuliga asoslanib limit Gibbs o‘lchovlarini analiz qilish F.A.Berezin, S.A.Pirogov, Ya.G.Sinay, J.Ginibre, A.Grossman, D.Ryuel, R.L.Dobrushin, V.Gersik, O.J.Heilmann, E.M.Lieb, M.Cassandro, M.Da Fano, G.Olivereri, U.A.Rozikov, G.I.Botirov va boshqa olimlarning ishlarida namoyon bo‘lgan.

D.Gandolfo, J.Ruiz, K.Kulske, P.M.Blexer, Dj.Libovis, Ye.Prezutti, Yu.M.Suxov, N.N.Ganixodjayev, U.A.Rozikov, F.M.Muxammedov, R.M.Xakimov, M.M.Raxmatullayev, N.M.Xatamov, Sh.A.Shoyusupov, A.M.Raxmatullayev, O.Xakimov, F.Xaydarov, M.Rasulova, M.Maxamadaliyev va boshqalarning ilmiy ishlarida Markov tasodifiy maydonlar nazariyasi va bu nazariyaning rekurrent tenglamalari usullaridan foydalanib Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan. U.A.Rozikov, K.Kulske va R.M.Xakimovlarning ishlarida Potts modeli uchun translyasion-invariant Gibbs o‘lchovlari tasniflangan. U.A.Rozikov, K.Kulske ishlarida esa Potts modeli uchun translyasion-invariant Gibbs o‘lchovlari chetki bo‘lishligi o‘rganilgan. U.A.Rozikov, F.M.Muxammedov, G.I.Botirov, N.M.Xatamovlarning ilmiy ishlarida Keli daraxtida Payersning konturlar usuli (Pirogov-Sinay nazariyasi) rivojlantirilgan. Bu usul bilan Keli daraxtida yetarlicha keng sinfdagi gamiltonianlar uchun bir xil bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlari mavjudligi ko‘rsatilgan. U.A.Rozikov, X.Akin, S.A.Temurlarning ilmiy ishlarida Keli daraxtidagi Izing modeli uchun avvaldan ma’lum bo‘lgan o‘lchovlardan farqli limit Gibbs o‘lchovlari to‘plami qurilgan. U.A.Rozikov ishlarida Izing modeli uchun DNK molekulalarida translyasion-invariant Gibbs o‘lchovlari tadbiqi o‘rganilgan. Shuning uchun Gibbs o‘lchovlarini biologiyaga, medisinaga, iqtisodiyotga va shunga o‘xshash sohalarga tadbiqlarini o‘rganish ham juda dolzarb masaladir.

Hozirgi vaqtda ko‘pgina statistik mexanika modellari uchun fazaviy o‘tish, ya’ni limit Gibbs o‘lchovlarining yagonamaslik masalasi o‘rganilgan. Lekin hali birorta ham model uchun limit Gibbs o‘lchovlarining to‘la tasnifi berilmagan. Statistik mexanikaning turli modellari uchun nazariyalar K.Preston, D.Ryuel, R.Bekster, X.O.Georgi, R.L.Dobrushin, S.A.Pirogov, Ya.G.Sinay, V.A.Malыshev, R.A.Minlos, Sh.B.Shlosman, D.Gandolfo, J.Ruiz, K.Kulske, P.M.Blexer, Yu.M.Suxov, L.V.Bogachev, E.N.Cirillo, E.Olivieri, N.N.Ganixodjayev, U.A.Rozikov, F.M.Muxammedov va boshqalarning ishlarida yaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasa-sining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I.Romanovskiy nomli Matematika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi F4-FA-F013 “Noassosiativ va operatorlar algebralari, dinamik sistemalar, hamda ular-ning statistik fizika va populyasion biologiyaga tatbiqlari” (2012-2016 yillar) va OT-F4-82+OT-F4-87 “*Operatorlar va noassosiativ* *algebralarda lokal differensial-lash va avtomorfizmlar, nochizikli dinamik sistemalarda faza almashishlar va xaos*”, “*Yevklid va psevdo-Yevklid fazolaridagi egri chiziqlar va sirtlarning global invariantlari nazariyasi va uning mexanikaga tadbiqlari*” (2017-2021 yillar) mavzusidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi spin qiymatlari soni ko‘pi sanoqli bo‘lgan Izing, Potts, Solid-On-Solid (SOS) va Blyum-Kapel modellari uchun limit Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsivlash hamda bu o‘lchovlarning biologiya masalalariga tatbiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tarqoq raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirli Potts modeli uchun yangi asosiy holatlar qurish;

Keli daraxtida sharli Izing va umumlashgan Potts modellari uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflash.

Keli daraxtida Izing va HC-Blyum-Kapel modellari uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarini qurish;

Keli daraxtida HC-Blyum-Kapel modellari DNK molekulasi uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari mavjudlini ko‘rsatish va bu o‘lchovlarning biologiyaga tatbiq qilish;

Keli daraxtining ba’zi tipdagi sanoqli graflarga gomeomorfizmi orqali aniqlangan HC-Blyum-Kapel va o‘zgaruvchi magnitli SOS modellari uchun gradiyent Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflash.

Tadqiqotning ob’yekti. Keli daraxtida umumlashgan Potts, Izing, HC-Blyum-Kapel va o‘zgaruvchi magnitli SOS modellaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Potts modeli uchun asosiy holatlar, umumlashgan Potts va sharli Izing modellari uchun fazaviy o‘tish masalasi, Izing va HC-Blyum-Kapel modellari uchun translyasion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari, Blyum-Kapel va Izing modellarini biologiyaga tatbiqi, Blyum-Kapel va SOS modellari uchun translyasion-invariant va davriy gradiyent Gibbs o‘lchovlarini topishdan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida umumlashgan Markov jarayonlar nazariyasi, o‘lchovlar nazariyasi va qisqartirib akslantirish usullari, nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasi, Markov tasodifiy maydonlar nazariyasi va bu nazariyaning rekurrent tenglamalari usuli qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tarqoq raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirli Potts modeli uchun yangi asosiy holatlar qurilgan;

Keli daraxtida sharli Izing va umumlashgan Potts modellari uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi ko‘rsatilgan va parametrning faza almashishi mavjudligini ta’minlovchi aniq qiymati topilgan;

Keli daraxtining ba’zi chekli graflarga gomeomorfizmi orqali aniqlangan Izing va HC-Blyum-Kapel modellari uchun translyatsion-invariant, davriy Gibbs o‘lchovlari yagona bo‘lmaydigan parametrning qiymatlari to‘plami aniqlangan;

Keli daraxtida HC-Blyum-Kapel modellari DNK molekulasi uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari mavjudlik oraliqlari topilgan va bu o‘lchovlarning biologiyaga tatbiqi yoritilgan;

Keli daraxtining ba’zi sanoqli graflarga gomeomorfizmi orqali aniqlangan HC-Blyum-Kapel va o‘zgaruvchi magnitli Solid-On-Solid modellari uchun gradiyent Gibbs o‘lchovlari to‘plami to‘liq tavsiflangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi Gibbs o‘lchovlari yagona bo‘lmagan modellar uchun parametrlarning fazaviy o‘tishlarni ta’minlaydigan aniq yoki taqribiy qiymatlarini aniqlanganligidan hamda ba’zi o‘lchovlar uchun fizik sistemaning sof fazasini ifodalovchi chekka o‘lchov bo‘lish oraliqlari topilganligi hamda bu Gibbs o‘lchovlarining biologiyaga tadbiqlarini topish usulining bayon qilinganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘lchovlar nazariyasining fundamental natijalaridan, funksional analiz, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilganligi va parametrlar fiksirlangan holda fazaviy o‘tish uchun topilgan kritik qiymatlar haqidagi tasdiqlar natijalari amaliy matematika dasturlash nazariyasi usullaridan qat’iy foydalanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda olingan natijalardan Gibbs o‘lchovlari nazariyasida fizikaning panjarali sistemalarida va biologiyaning DNK termodinamikasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni translyasion-invariant, davriy va gradiyent Gibbs o‘lchovlari hamda asosiy holatlariga oid natijalar, fizik sistemaning fazaviy o‘tish mavjudligini tekshirishga tatbiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoqli graflarda biologik va fizik sistemalar uchun Gibbs o‘lchovlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Keli daraxtida berilgan sharli Izing va umumlashgan Potts modellari uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari to‘plamining tavsifidan “Kubik stoxastik operatorlarni saqlaydigan chekli o‘lchovli ortogonallik dinamikasi” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida Bete panjarasida q ta holatli Potts modelining faza diagrammalarini ifodalashda foydalanilgan (Xalqaro Islom universitetining 2023 yil 21 noyabrdagi ma’lumotnomasi, Malayziya). Ilmiy natijaning qo‘llanishi Potts modeli uchun faza almashishi mavjud bo‘ladigan kritik haroratni aniq hisoblash imkonini bergan;

Keli daraxtining ba’zi chekli graflarga gomeomorfizmi orqali aniqlangan HC-Blyum-Kapel modellari uchun translyatsion-invariant, davriy Gibbs o‘lchovlarining yagona emasligidan “Panjara modellarining p-adik Gibbs o‘lchovlari tavsifi” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida ba’zi bir modellar uchun noamenabel graflarda haqiqiy va p-adik Gibbs o‘lchovlarini qurishda foydalanilgan (Yaqin sharq Amerika universitetining 2023 yil 20 noyabrdagi ma’lumotnomasi, Quvayt). Ilmiy natijaning qo‘llanishi qattiq jismlar fizik sistemalariga mos faza almashishlarini tavsiflash imkonini bergan;

Keli daraxtida tarqoq raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirga ega Potts modeli uchun asosiy holatlarni qurish usullaridan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida 2018-2019 yillarda bajarilgan YOFA-Ftex-2018-78 “Amenabel bo‘lmagan graflarda dinamik va termodinamik sistemalar” mavzusidagi fundamental loyihada λ-model uchun minimal enrgiyani hisoblashda foydalanilgan (Matematika institutining 2023 yil 25 oktabrdagi №2/459-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi Keli daraxtida λ-model uchun davriy va kuchsiz davriy asosiy holatlar mavjudligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 29 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 10 ta xalqaro va 19 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 48 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta ilmiy maqola, jumladan, 12 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 190 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **«Potts modeli uchun Gibbs o‘lchovi va asosiy holatlar»** deb nomlanuvchi birinchi bobida tarqoq raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirli Potts modeli uchun yangi asosiy holatlar sinflari qurilgan, sharli Izing va umumlashgan Potts modellari uchun translyasion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan va bu modellar uchun kontinuumta Gibbs o‘lchovlari mavjudligi isbotlangan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi yordamchi xarakterda bo‘lib, bu yerda Gibbs o‘lchovlar nazariyasi tarixi, zarur ta’riflar, asosiy holat, Gibbs o‘lchovlari tushunchalari hamda ba’zi ma’lum faktlar keltirilgan.

$k\geq 1$ tartibli $\Im^k$ Keli daraxti bu cheksiz daraxtdir, ya’ni har bir uchidan $k+1$ ta qirra chiquvchi siklsiz grafdir.

$\Im^k=(V,L,i)$ ni qaraylik, bunda V to‘plam $\Im^k$ daraxtning uchlari to‘plami, $L-$uning qirralari to‘plami va $i-$har bir $l\in L$ qirraga uning $x,y\in V$ chetki nuqta-larini mos qo‘yuvchi insidentlik funksiyasidir. Agar $i(l)=\{x,y\}$ bo‘lsa, u holda x va y uchlar eng yaqin qo‘shnilar deyiladi va $l=\langle x,y\rangle$ kabi belgilanadi.

Keli da-raxtida $x, y \in V$ uchlar orasidagi $d(x,y)$ masofa ushbu formula orqali aniqlanadi

$$d(x,y) = \min\{d \mid \exists x = x_0, x_1, \ldots, x_{d-1}, x_d = y \in V,\ \langle x_0, x_1\rangle, \ldots, \langle x_{d-1}, x_d\rangle\}.$$

Fiksirlangan $x^0 \in V$ uchun quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$W_n = \{x \in V \mid d(x,x^0) = n\},\ V_n = \{x \in V \mid d(x,x^0) \le n\},$$
$$L_n = \{l = \langle x, y\rangle \in L \mid x, y \in V_n\}.$$

$x \in W_n$ uchun $S(x) = \{y \in W_{n+1} : d(x,y) = 1\}$ to'plam x ning *to'g'ri avlodlari to'plami* deyiladi.

1-izoh. *Tushunarliki,* $\Im^k$ *da har bir* $x \ne x^0$ *uchining* k *to'g'ri avlodlari bor va* x^0 *uchda esa* $k+1$ *avlodlari bor.*

Ma'lumki, $\Im^k$ ni G_k – tashkil etuvchilari mos ravishda $a_1, a_2, ..., a_{k+1}$ bo'lgan $k+1$ ta ikkinchi tartibli siklik gruppalarning erkin ko'paytmasi kabi berish mumkin.

$A \subseteq V$ to'plamda aniqlangan $\sigma_A : x \in A \to \sigma_A(x) \in \Phi = \{1, ..., q\}$ funksiya konfiguratsiya deyiladi. A to'plamda aniqlangan barcha konfiguratsiyalar to'plami $\Omega_A = \Phi^A$ kabi belgilanadi.

$\sigma \in \Omega$ konfigurasiyaning energiyasi ushbu

$$H(\sigma) = \sum_{\substack{A \subset V: \\ diam(A) \le r}} I(\sigma_A), \qquad (1)$$

gamiltonian orqali beriladi, bunda $r \in N, diam(A) = \max_{x,y \in A} d(x,y)$ va $I(\sigma_A) : \Omega_A \to R-$ berilgan potensial.

$D^c = V \setminus D$ da φ_{D^c} chegaraviy shart berilgan chekli $D \subset V$ soha uchun shartli gamiltonian quyidagi

$$H(\sigma_D \mid \varphi_{D^c}) = \sum_{\substack{A \subset V : A \cap D \ne \varnothing \\ diam(A) \le r}} I(\sigma_A)$$

ko'rinishga ega, bunda

$$\sigma_A(x) = \begin{cases} \sigma(x), & \text{agar } x \in A \bigcap D \\ \varphi(x), & \text{agar } x \in A \bigcap D^c. \end{cases}$$

$G_k / G_k^* = \{H_1, H_2, ..., H_r\} -$faktor gruppa bo'lsin, bunda $G_k^* -$indeksi $r \ge 1$ bo'lgan normal bo'luvchi.

1-ta'rif. *Agar ixtiyoriy* $x \in G_k$ *uchun* $x \in H_i$ *da* $\sigma(x) = \sigma_i$ *bo'lsa, u holda* $\sigma(x), x \in V$ *konfiguratsiya* G_k^**-davriy konfiguratsiya deyiladi.* G_k*-davriy konfiguratsiya translyasion-invariant deyiladi.*

$\mathbf{B} - \Omega$ to'plamning silindrik qism to'plamlaridan tashkil topgan σ-algebra bo'lsin.

Ushbu

$$\sigma_A \vee \tilde{\sigma}_{V \setminus A}(x) = \begin{cases} \sigma(x), & \text{agar } x \in A, \\ \tilde{\sigma}(x), & \text{agar } x \in V \setminus A. \end{cases}$$

konfiguratsiyani qaraylik.

2-ta’rif. *Agar ixtiyoriy chekli* $A \subset V$ *to‘plam uchun ushbu*

$$\mu(\sigma_A \mid \tilde{\sigma}_{V\setminus A}) = \frac{e^{-\beta H(\sigma_A \vee \tilde{\sigma}_{V\setminus A})}}{Z_{A,\tilde{\sigma}}},$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda μ *ehtimollik o‘lchovi* **B** σ*-algebrada limit Gibbs o‘lchovi deyiladi, bunda* $H(\sigma)$ *(1) formula orqali aniqlangan,* $\beta = 1/T$, $T > 0-$ *temperatura va*

$$Z_{A,\tilde{\sigma}} = \sum_{\varphi \in \Omega_A} e^{-\beta H(\varphi_A \vee \tilde{\sigma}_{V|A})}.$$

$\widehat{G}_k$ - G_k ning qism gruppasi bo‘lsin.

3-ta’rif. *Agar* $\forall x \in G_k, y \in \widehat{G}_k$ *uchun* $h_{yx} = h_x$ *bo‘lsa, u holda* $h = \{h_x, x \in G_k\}$ *qiymatlar majmui* $\widehat{G}_k$*-davriy deyiladi.* G_k *-davriy qiymatlar translyasion-invariant deyiladi.*

4-ta’rif. $\widehat{G}_k$*- davriy* h *qiymatlar majmuiga mos* μ *o‘lchovni* $\widehat{G}_k$*- davriy o‘lchov deyiladi.* G_k *-davriy o‘lchovlar translyasion-invariant o‘lchov deyiladi.*

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi ikkinchi tartibli Keli daraxtida aniqlangan tarqoq raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirli Potts modeli uchun yangi asosiy holatlar to‘plamini qurishga bag‘ishlangan.

Tarqoq raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirli Potts modelining gamiltoniani quyidagi ko‘rinishga ega:

$$H(\sigma) = J_1 \sum_{\langle x,y\rangle; x,y \in V} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)} + J_2 \sum_{\rangle x,y\langle; x,y \in V} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)} + J_3 \sum_{\rangle\rangle x,y\langle\langle; x,y \in V} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)}, \qquad (2)$$

bu yerda $J_1, J_2, J_3 \in \mathbb{R}$, $\rangle x, y\langle -$ bir xil "qavatda" va $\rangle\rangle x, y\langle\langle -$ har xil "qavatda" yotgan uzunliklari $d(x, y) = 2$ bo‘lgan $x, y \in V$ uchlar,

$$\delta_{uv} = \begin{cases} 1, & u = v, \\ 0, & u \neq v. \end{cases}$$

Deyarli hamma yerda, ya’ni chekli sondagi nuqtalardan tashqari hamma yerda, ustma-ust tushadigan σ va φ juftliklar uchun, σ, φ konfiguratsiyalar energiyalari orasidagi farqni ifodalovchi $H(\sigma, \varphi) -$ nisbiy gamiltonianni qaraymiz:

$$H(\sigma,\varphi) = J_1 \sum_{\langle x,y\rangle; x,y \in V} (\delta_{\sigma(x)\sigma(y)} - \delta_{\varphi(x)\varphi(y)}) + J_2 \sum_{\rangle x,y\langle; x,y \in V} (\delta_{\sigma(x)\sigma(y)} - \delta_{\varphi(x)\varphi(y)}) +$$

$$+ J_3 \sum_{\rangle\rangle x,y\langle\langle; x,y \in V} (\delta_{\sigma(x)\sigma(y)} - \delta_{\varphi(x)\varphi(y)}), \qquad (3)$$

bu yerda $J = (J_1, J_2, J_3) \in \mathbb{R}^3 -$ ixtiyoriy fiksirlangan parametr.

$M - V$ uchlardan iborat birlik sharlar to‘plami bo‘lsin. $b \in M$ shar ustida σ konfiguratsiya cheklanishini σ_b *cheklangan konfiguratsiya* deyiladi. b shardagi σ_b konfiguratsiya energiyasini quyidagicha aniqlaymiz:

$$U(\sigma_b) \equiv U(\sigma_b, J) = \frac{1}{2} J_1 \sum_{\langle x,y\rangle; x,y \in b} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)} + J_2 \sum_{\rangle x,y\langle; x,y \in b} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)} + J_3 \sum_{\rangle\rangle x,y\langle\langle; x,y \in b} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)}, \qquad (4)$$

bu yerda $J=(J_1,J_2,J_3)\in\mathbb{R}^3$.

$k=2$ va $q=3$ holni qaraymiz. Oson ko‘rish mumkinki, ixtiyoriy σ_b uchun $U(\sigma_b)\in\{U_1,U_2,...,U_9\}$, bu yerda

$$
\begin{gathered}
U_1=\frac{3}{2}J_1+2J_2+J_3, U_2=J_1+J_3, U_3=2J_2+J_3, U_4=\frac{1}{2}J_1+J_3,\\
U_5=J_3, U_6=J_1+J_2, U_7=\frac{1}{2}J_1+J_2, U_8=J_2, U_9=\frac{1}{2}J_1.
\end{gathered}
\tag{5}
$$

5-ta’rif. *φ konfiguratsiya H nisbiy gamiltonianning asosiy holati deyiladi, agarda ixtiyoriy $b\in M$ uchun $U(\varphi_b)=\min\{U_1,U_2,...,U_9\}$.*

Quyidagicha belgilashlarni kiritamiz:

$$A_1=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1\le 0, J_1+4J_2\le 0, J_1+2J_2+2J_3\le 0\},$$

$$A_2=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1\ge 0, J_2\le 0, J_2+J_3\le 0\},$$

$$A_3=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1\le 0, J_1+4J_2\ge 0, J_2-J_3\ge 0, J_1+2J_3\le 0\},$$

$$A_4=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1=0, J_2\ge 0, J_3\le 0\},$$

$$A_5=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1\ge 0, J_2\ge 0, J_2-J_3\ge 0, J_1-2J_3\ge 0\},$$

$$A_6=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1\le 0, J_1+2J_2\le 0, J_2-J_3\le 0, J_1+2J_2+2J_3\ge 0\},$$

$$A_7=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1=0, J_2\le 0, J_2+J_3\ge 0\},$$

$$A_8=\{J\in\mathbb{R}^3: J_1\ge 0, J_1-2J_2\ge 0, J_3\ge |J_3|\},$$

$$A_9=\{J\in\mathbb{R}^3: |J_1|\le 2J_2, |J_1|\le 2J_3\};$$

$B_{i_1i_2...i_k}=A_{i_1}\cap A_{i_2}\cap...\cap A_{i_k}$, $k=2,3,4$, qayerda $1\le i_j\le 9$, $j=1,...,k$.

$$\widetilde{A_1}=A_1\setminus(B_{12}\cup B_{13}\cup B_{16}),\ \widetilde{A_2}=B_{36}\setminus(B_{369}\cup B_{136}),$$

$$\widetilde{A_3}=A_2\setminus(B_{12}\cup B_{25}\cup B_{27}\cup B_{28}),\ \widetilde{A_4}=A_9\setminus(B_{39}\cup B_{49}\cup B_{59}\cup B_{69}\cup B_{89}),$$

$$\widetilde{A_5}=B_{589}\setminus\{(0,0,0)\},$$

$$\widetilde{B_1}=A_5\setminus(B_{58}\cup B_{59}\cup B_{25}\cup B_{35}),\ \widetilde{B_2}=A_8\setminus(B_{28}\cup B_{58}\cup B_{78}\cup B_{89}),$$

$$\widetilde{B_3}=B_{25}\setminus(B_{125}\cup B_{258}),\ \widetilde{B_4}=B_{58}\setminus(B_{258}\cup B_{589}),\ \widetilde{B_5}=B_{12}\setminus(B_{13}\cup B_{16}),$$

$$\widetilde{B_6}=B_{13}\setminus(B_{12}\cup B_{16}),\ \widetilde{B_7}=B_{39}\setminus(B_{49}\cup B_{369}),\ \widetilde{B_8}=B_{369}\setminus\{(0,0,0)\}.$$

$GS(H)-$barcha asosiy holatlar to‘plami, $GS_p(H)-$barcha davriy asosiy holatlar to‘plami bo‘lsin.

Birinchi bob ikkinchi paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremada ifodalangan.

1-teorema. *Quyidagi tasdiqlar o‘rinli.*

Agar $J=(0,0,0)$, u holda $GS(H)=\Omega$.

Agar $J\in\widetilde{A_1}\cup\widetilde{A_2}\cup\widetilde{A_3}\cup\widetilde{A_5}$, u holda $|GS_p(H)|=3$.

Agar $J\in\widetilde{A_5}$, u holda $|GS_p(H)|=6$.

Agar $J\in\widetilde{B_i}, i=\overline{1,4}$, u holda $|GS_p(H)|\ge 6$

Agar $J \in \widetilde{B}_i, i = 5, 6, 7, 8,$ *u holda* $|GS_p(H)| = 6$.

2-izoh. *Ilg'aymizki,* $J \in \widetilde{A}_5$ *va* $J \in \widetilde{B}_i, i = \overline{1, 4}$ *hollarda topilgan asosiy holatlar butunlay yangi.*

Birinchi bobning uchinchi paragrafi sharli Izing modeli uchun translyasion-invariant va davriy Gibbs o'lchovlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shu bilan birga bu model uchun fazaviy o'tish, ya'ni Gibbs o'lchovlarini yagonamasligi isbotlangan.

$\Phi = \{-1,1\}$ va $\sigma \in \Phi^V$ $-$konfiguratsiya bo'lsin.

Sharli Izing modelining gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H(\sigma) = -J \sum_{\substack{\langle x_0, x_i \rangle, x_0, x_i \in V; \\ i = \overline{1, k+1}}} \sigma(x_0)\sigma(x_1)\sigma(x_2)...\sigma(x_{k+1}), \tag{6}$$

bu yerda $J \in \mathbb{R}$.

$x \in G_k$ uchun $x_{\downarrow} = \{y \in G_k : \langle x, y \rangle\} \setminus S(x)$ belgilashni kiritamiz, bu yerda $S(x) - x \in V$ nuqtaning "*to'g'ri avlodlari*" to'plami.

$k = 2$ holni qaraymiz.

$$b(x) = \{x, xa_1, xa_2, xa_3\}, \quad \sigma_{b(x)} = \{\sigma(x), \sigma(xa_1), \sigma(xa_2), \sigma(xa_3)\}$$

bo'lsin

Ω_{V_n} da quyidagicha aniqlangan

$$\mu^{(n)}(\sigma_n) = Z_n^{-1} exp\{-\beta H(\sigma_n) + \sum_{x \in W_n} h_{b(x), \sigma_b(x)}^{\sigma_b(x_{\downarrow})}\}, \tag{7}$$

$\mu^{(n)}$, $n = 1,2,...$ ehtimolliklar taqsimotini qaraylik, bu yerda $\sigma_n \in \Omega_{V_n}$, $Z_n = \sum_{\bar{\sigma}_n \in \Omega_{V_n}} exp\left\{-\beta H(\bar{\sigma}_n) + \sum_{x \in W_n} h_{b(x), \bar{\sigma}_b(x)}^{\bar{\sigma}_b(x_{\downarrow})}\right\}$ $-$normallovchi bo'luvchi va $h_{b, \bar{\sigma}}^{\bar{\sigma}} \in \mathbb{R}$.

Agar ixtiyoriy $n \geq 1$ va $\sigma_{n-1} \in \Omega_{V_{n-1}}$ uchun quyidagi

$$\sum_{\{\omega_n \in \Omega_{V_n} : \, \omega_n|_{V_{n-1}} = \sigma_{n-1}\}} \mu^{(n)}(\omega_n) = \mu^{(n-1)}(\sigma_{n-1}) \tag{8}$$

tenglik o'rinli bo'lsa, u holda $\mu^{(n)}$ ehtimolliklar ketma-ketligi *muvofiqlashgan* deyiladi.

Agar $\mu^{(n)}$ uchun muvofiqlik sharti o'rinli bo'lsa, u holda o'lchovni davomi to'g'risidagi Kolmogorov teoremasiga ko'ra $(\Omega, \mathbf{B})$ da ixtiyoriy n va $\sigma_n \in \Omega_{V_n}$ uchun ushbu

$$\mu(\{\sigma : \sigma|_{V_n} = \sigma_n\}) = \mu^{(n)}(\sigma_n).$$

tenglikni qanoatlantiruvchi yagona μ o'lchov mavjud.

$M -$birlik sharlar to'plami bo'lsin. b, c lar orqali $a \in M$ sharning to'g'ri avlodlarini belgilaymiz.

Standart usulda (qarang U.A. Rozikov ilmiy ishlaridan) sharli Izing modelidagi Gibbs o'lchovlarini o'rganish masalasini quyidagi funktsional tenglamalar sistemasini yechishga keltirish mumkin:

$$
\begin{aligned}
y_{a,0} = y_{a,6} &= \frac{y_{b,0}+\lambda^2 y_{b,1}+y_{b,2}}{\lambda^2 y_{b,0}+y_{b,1}+\lambda^2 y_{b,2}}\cdot\frac{y_{c,0}+\lambda^2 y_{c,1}+y_{c,2}}{\lambda^2 y_{c,0}+y_{c,1}+\lambda^2 y_{c,2}},\\
y_{a,1} = y_{a,7} &= \frac{y_{b,0}+\lambda^2 y_{b,1}+y_{b,2}}{\lambda^2 y_{b,0}+y_{b,1}+\lambda^2 y_{b,2}}\cdot\frac{\lambda^2 y_{c,3}+y_{c,4}+\lambda^2}{\lambda^2 y_{c,0}+y_{c,1}+\lambda^2 y_{c,2}},\\
y_{a,2} = y_{a,8} &= \frac{\lambda^2 y_{b,3}+y_{b,4}+\lambda^2}{\lambda^2 y_{b,0}+y_{b,1}+\lambda^2 y_{b,2}}\cdot\frac{\lambda^2 y_{c,3}+y_{c,4}+\lambda^2}{\lambda^2 y_{c,0}+y_{c,1}+\lambda^2 y_{c,2}},\\
y_{a,3} = y_{a,9} &= \frac{y_{b,3}+\lambda^2 y_{b,4}+1}{\lambda^2 y_{b,0}+y_{b,1}+\lambda^2 y_{b,2}}\cdot\frac{y_{c,3}+\lambda^2 y_{c,4}+1}{\lambda^2 y_{c,0}+y_{c,1}+\lambda^2 y_{c,2}},\\
y_{a,4} = y_{a,10} &= \frac{y_{c,3}+\lambda^2 y_{c,4}+1}{\lambda^2 y_{c,0}+y_{c,1}+\lambda^2 y_{c,2}}, y_{a,5}=1,
\end{aligned}
\tag{9}
$$

bu yerda $\lambda = exp\{J\beta\}$, $\beta = 1/T$, $y_{a,i} = exp(h_{a,i} - h_{a,11})$, $i=\overline{0,10}.$

Birinchi bob uchinchi paragraf natijalari quyidagicha:

2-teorema. *(6) model uchun shunday aniq* $\lambda_{cr} = \sqrt[4]{0.064}$ *son mavjudki,* $\lambda \geq \lambda_{cr}$ *da kamida bitta TIGO‘ (translyasion-invariant Gibbs o‘lchovi) mavjud,* $0<\lambda<\lambda_{cr}$ *da kamida uchta TIGO‘ mavjud hamda* $0<\lambda<\lambda_{cr}$ *da translyasion-invariant bo‘lmagan kontinuum Gibbs o‘lchovi mavjud.*

Faraz qilaylik, (9) da quyidagi

$$y_{a,0} = y_{a,3},\ y_{a,1} = y_{a,4},\ y_{a,2} = 1,\ \forall a \in M. \tag{10}$$

bajarilsin.

(6) model uchun $\lambda > 0$ va (10) shart bajarilganda yagona $G_2^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovi mavjud. Shu bilan birga, bu o‘lchov translyasion-invariant o‘lchov bilan ustma-ust tushadi, bu yerda $G_k^{(2)} -$juft uzunlikdagi so‘zlardan iborat G_k qism gruppasi.

3-teorema. *(6) model uchun (10) shart bajarilganda sanoqsizta* H_A*-davriy Gibbs o‘lchovi mavjud. Shu bilan birga, bu o‘lchovlar translyasion-invariant ham va* $G_2^{(2)}$*-davriy ham bo‘lmaydi, bu yerda*

$$H_A = \{x \in G_2 : \sum_{i \in A} \omega_x(a_i) \text{ жуфт}\}.$$

Birinchi bobni to‘rtinchi paragrafida $k=3$ tartibli Keli daraxtida ta’sir radiusi ikki bo‘lgan umumlashgan Potts modeli uchun translyasion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi o‘rganilgan.

$\Phi = \{-1,1\}$ va $\sigma \in \Phi^V -$konfiguratsiya bo‘lsin. $|A|$ orqali A to‘plamning elementlari sonini belgilaymiz.

Ushbu

$$U(\sigma_A) : \Omega_A \to \{|A|-1, |A|-2, \ldots, |A| - \min(|A|, |\Phi|)\}$$

funksiya orqali umumlashgan Kroneker simvolini quyidagicha aniqlanadi:

$$U(\sigma_A) = |A| - |\sigma_A \cap \Phi|, \tag{11}$$

bu yerda $A \subset V$, $|\sigma_A \cap \Phi| - \sigma_A(x), x \in A$ ning har xil qiymatlari soni.

$|A|=5$ holni qaraymiz. M orqali radiusi 1 ga teng bo‘lgan barcha $b(x)=\{y\in V: d(x,y)\le 1\}$ sharlar to‘plamini belgilaymiz.

Umumlashgan Potts modeli gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H(\sigma)=-J\sum_{b\in M}U(\sigma_b), \tag{12}$$

bu yerda $J\in\mathbb{R}$.

3-izoh. *(12) model uchun $k=2$ holni U.A.Rozikov va G‘.T.Madg‘oziyev tomoni-dan o‘rganilgan. Biz $k=3$ holni qaraymiz. Ushbu paragrafda (12) model uchun translyasion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan va uchunchi parag-rafga o‘xshash natijalar olingan. Bu natijalar ichida eng muhimi 7-teorema ((12) model uchun ham shunday teorema o‘rinli). Bu tasdiq ko‘rib chiqilayotgan model-lar doirasida yangi hodisani aks ettiradi, chunki ilgari o‘rganilgan modellar uchun bunday davriy Gibbs o‘lchovlari mavjud emas edi.*

Dissertasiyaning **«Blyum-Kapel modeli uchun Gibbs o‘lchovlari»** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi Blyum-Kapel modeli uchun translyasionno-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Modelning ba’zi chekli graf hollari uchun $k\ge 2$ tartibli Keli daraxtida translyasionno-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari yagona bo‘lmaydigan parametrning aniq qiymatlari topilgan. $k=2$ bo‘lganda esa mavjud translyasionno-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarining chekka o‘lchov bo‘lish va bo‘lmaslik shartlari aniqlangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida Keli daraxtida Izing-1 modeli uchun TIGO‘larini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bunday o‘lchovlarning chekkaligini o‘rganish usuli berilgan. Bundan tashqari, yagona Gibbs o‘lchovi uchun chekka bo‘lish va bo‘lmaslik shartlari topilgan.

$\Phi=\{-1,0,1\}$ va $\sigma\in\Phi^V$ – konfiguratsiya bo‘lsin.

Izing-1 modeli gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H(\sigma)=-J\sum_{\langle x,y\rangle, x,y\in V;}\sigma(x)\sigma(y),$$

bu yerda $J>0$.

$h: x\mapsto h_x=(h_{-1,x},h_{0,x},h_{1,x})$ – $x\in V\setminus\{x^0\}$ ning vektor funksiyasi bo‘lsin.

Ω_{V_n} da

$$\mu^{(n)}(\sigma_n)=Z_n^{-1}exp\{-\beta H(\sigma_n)+\sum_{x\in W_n}h_{\sigma(x),x}\} \tag{13}$$

$\mu^{(n)}$ ehtimollik taqsimotini qaraymiz. Bunda $\sigma_n\in\Omega_{V_n}$ va Z_n – normallovchi bo‘luvchi

$$Z_n=\sum_{\overline{\sigma}_n\in\Omega_{V_n}}exp\{-\beta H(\overline{\sigma}_n)+\sum_{x\in W_n}h_{\overline{\sigma}(x),x}\},$$

bu yerda $h_{\overline{\sigma},x}\in\mathbb{R}$.

Standart usulda (qarang U.A. Rozikov ilmiy ishlaridan) Izing-1 modeli uchun Gibbs o‘lchovlarini o‘rganish masalasini quyidagi funktsional tenglamalar sistemasini yechishga keltirish mumkin:

$$\begin{cases} z_{1,x} = \prod\limits_{y \in S(x)} \dfrac{\lambda z_{1,y} + \lambda^{-1} z_{-1,y} + 1}{z_{1,y} + z_{-1,y} + 1}, \\ z_{-1,x} = \prod\limits_{y \in S(x)} \dfrac{\lambda^{-1} z_{1,y} + \lambda z_{-1,y} + 1}{z_{1,y} + z_{-1,y} + 1}, \end{cases} \tag{14}$$

bu yerda $\lambda = exp\{J\beta\}, \beta = 1/T, z_{i,x} = exp(h_{i,x} - h_{0,x}), i = -1,1$.

$k = 2$ bo‘lsin. U holda Izing-1 modeli uchun shunday $\lambda_{cr} \approx 2.1132163$ topiladiki, $0 < \lambda \le \lambda_{cr}$ uchun yagona μ_0 TIGO‘ mavjud, $\lambda > \lambda_{cr}$ uchun aniq uchta μ_0, μ_1, μ_2 TIGO‘lari mavjud.

μ_0 TIGO‘ning chekka o‘lchov bo‘lish sharti quyidagicha. $k = 2$ bo‘lsin. Agar $\lambda \in (0, \lambda_1) \cup (\lambda_2, +\infty)$ da μ_0 o‘lchov chekka bo‘lmaydi, agar $\lambda_1 < \lambda < \lambda_2$ da μ_0 o‘lchov chekka bo‘ladi, bu yerda $\lambda_1 \approx 0.336135$ va $\lambda_2 \approx 2.975$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida $k \ge 2$ tartibli Keli daraxtida Blyum-Kapel modelining «jezl» tipidagi chekli graf holi ko‘rib chiqilgan. Bunday holda, TIGO‘larining to‘liq tavsifi olingan. Bundan tashqari, bu topilgan TIGO‘lari uchun chekka bo‘lish va bo‘lmaslik shartlari topilgan.

$\Phi = \{-1,0,1\}$ va $\sigma \in \Phi^V -$konfiguratsiya bo‘lsin.

Quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan uchta $-1,0,1$ uchli ($\sigma(x)$ qiymatlar to‘plamida) grafni ko‘rib chiqamiz:

jezl: $\{0,-1\}$, $\{0,1\}$, $\{-1,-1\}$, $\{1,1\}$.

Blyum-Kapel modeli gamiltonianini quyidagi ko‘rinishda ham aniqlash mumkin:

$$H(\sigma) = J \sum_{\langle x,y \rangle, x,y \in V;} (\sigma(x) - \sigma(y))^2, \tag{15}$$

bu yerda $J \in \mathbb{R}$.

$O = \{\text{жезл}\}$, $G \in O$ bo‘lsin. Keli daraxtida (mos ravishda V_n da) σ konfiguratsiya G*-joiz konfiguratsiya* deyiladi, agarda $\{\sigma(x), \sigma(y)\} -$qirra V dan (V_n dan) olingan barcha x, y yaqin qo‘shnilar uchun G ning qirrasi bo‘lsa.

$h: x \mapsto h_x = (h_{-1,x}, h_{0,x}, h_{1,x}) - x \in V \setminus \{x^0\}$ ning vektor funksiyasi bo‘lsin.

Ω_{V_n} da

$$\mu^{(n)}(\sigma_n) = Z_n^{-1} exp\{-\beta H(\sigma_n) + \sum_{x \in W_n} h_{\sigma(x),x}\} \tag{16}$$

$\mu^{(n)}$ ehtimollik taqsimotini qaraymiz. Bunda $\sigma_n \in \Omega_{V_n}$ va $Z_n -$normallovchi bo‘luvchi

$$Z_n = \sum_{\bar{\sigma}_n \in \Omega_{V_n}} exp\{-\beta H(\bar{\sigma}_n) + \sum_{x \in W_n} h_{\bar{\sigma}(x),x}\},$$

bu yerda $h_{\bar{\sigma},x} \in \mathbb{R}$.

$L(G) - G$ graf qirralar to‘plami bo‘lsin, $A \equiv A^G = (a_{ij})_{i,j=-1,0,1}$ orqali G ning qo‘shnilik matrisasini belgilaymiz, ya’ni

$$a_{ij} \equiv a_{ij}^G = \begin{cases} 1, & \text{agar } \{i,j\} \in L(G), \\ 0, & \text{agar } \{i,j\} \notin L(G). \end{cases}$$

Standart usulda (qarang U.A. Rozikov ilmiy ishlaridan) HC-Blyum-Kapel modeli uchun Gibbs o‘lchovlarini o‘rganish masalasini quyidagi funktsional tenglamalar sistemasini yechishga keltirish mumkin:

$$\begin{cases} z_{1,x} = \prod\limits_{y \in S(x)} \dfrac{a_{1,-1}\theta^4 z_{-1,y} + a_{1,0}\theta + a_{1,1}z_{1,y}}{a_{0,-1}\theta z_{-1,y} + a_{0,0} + a_{0,1}\theta z_{1,y}}, \\ z_{-1,x} = \prod\limits_{y \in S(x)} \dfrac{a_{-1,-1}z_{-1,y} + a_{-1,0}\theta + a_{-1,1}\theta^4 z_{1,y}}{a_{0,-1}\theta z_{-1,y} + a_{0,0} + a_{0,1}\theta z_{1,y}}, \end{cases} \tag{17}$$

bu yerda $\theta = exp\{-J\beta\}, \beta = 1/T, z_{i,x} = exp(h_{i,x} - h_{0,x}), i = -1,1.$

Ikkinchi bobning asosiy natijalari

4-teorema. *$k \geq 2$ va $\theta_{cr} = \theta_{cr}(k) = \sqrt[k+1]{k^k (k-1)2^{-k}}$ bo‘lsin. U holda Blyum-Kapel modeli «jezl» holati uchun $\theta \geq \theta_{cr}$ yagona μ_0 TIGO‘ mavjud, $\theta < \theta_{cr}$ aniq uchta μ_0, μ_1, μ_2 TIGO‘lari mavjud.*

μ_0, μ_1, μ_2 TIGO‘larining chekka o‘lchov bo‘lish shartlari quyidagicha.

$k = 2$ bo‘lsin. 1. Blyum-Kapel modeli «jezl» tipidagi chekli graf uchun μ_0 o‘lchov

$$\theta \in \left(0; 2^{-1}\sqrt[3]{4\sqrt{2} - 4}\right) \cup \left(2^{-1}\sqrt[3]{28 + 20\sqrt{2}}; +\infty\right)$$

chekka bo‘lmaydi va $2^{-1}\sqrt[3]{4\sqrt{2} - 4} < \theta < 2^{-1}\sqrt[3]{28 + 20\sqrt{2}}$ chekka bo‘ladi.

2. Blyum-Kapel modeli «jezl» holati uchun μ_1, μ_2 o‘lchovlar

$$\sqrt[3]{\sqrt{2} - 1 + 2^{-1}\sqrt{2\sqrt{2} - 2}} < \theta < 1$$

chekka bo‘ladi.

4-izoh. *μ_1, μ_2 o‘lchovlar uchun $0 < \theta < \sqrt[3]{\sqrt{2} - 1 + \sqrt{2\sqrt{2} - 2} / 2}$ chekka o‘lchov bo‘lish masalasi hozircha ochiqligicha qolmoqda.*

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi «jezl» holatli HC-Blyum-Kapel modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlariga bag‘ishlangan. $k \geq 2$ tartibli Keli darxtida davriy Gibbs o‘lchovlarning xarakteristikasi olingan. Bunday Gibbs o‘lchovlarning ikkinchi tartibli Keli daraxtida to‘liq tavsifi berilgan va bu o‘lchovlarning chekka o‘lchov bo‘lish masalasi o‘rganilgan.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi paragrafi «umumlashgan jezl» holatli HC-Blyum-Kapel modeli uchun TIGO‘larini o‘rganishga bag‘ishlangan. TIGO‘larining ikkinchi tartibli Keli daraxtida to‘liq tavsifi berilgan va bu o‘lchovlarning chekka o‘lchov bo‘lish masalasi o‘rganilgan.

Ikkinchi bobning beshinchi paragrafi ximik potensialli HC-Blyum-Kapel modeli uchun TIGO‘larini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bunday Gibbs o‘lchovlarning ikkinchi tartibli Keli daraxtida to‘liq tavsifi berilgan va bu o‘lchovlarning chekka o‘lchov bo‘lish masalasi o‘rganilgan.

